O'zbekistonda natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirish mexanizmini rivojlantirish.....	1019
Primova Nigora Ikrom qizi	
Kichik biznes korxonalarida B2B bozorini tizimli tashkil etishning uslubiy jihatlari.....	1026
Zakirova Gulnoza Qudratovna	
Current Trends in Agrotourism in Uzbekistan: Demand, Needs, and Motives of Agritourists.....	1030
Iroda Abdieva Gayrat kizi	
Современное состояние достойного труда специалистов транспорта в условиях цифровизации.....	1035
Абдуллаева Нигора Шамсиддиновна	
Обоснование методов оценки совершенствования конкурентоспособности предприятий легкой промышленности.....	1039
Тухтасинова Мухайё Мирзасултоновна	
Проблемные аспекты трансформации финансовой отчетности бизнеса юридических лиц.....	1045
Шин Инесса Олеговна	
Cross-Cultural Management is a Separate Field of Science and Discipline.....	1051
Umarova Zulaykho, Rakhmanova Zilola	
Tadbirkorlik subyektlarida xalqaro sifat standartlarini joriy etish tahlili.....	1054
Oqboyev Alisher Rasuljanovich	
O'zbekiston iqtisodiyotida kichik biznesning o'rni.....	1058
Jo'rayev Ilhomjon Kamolidinovich	
Iqtisodiy inqiroz davrida kredit xizmatlari bozorini davlat tomonidan tartibga solishning xorijiy modellari....	1062
Kurbonov Rustam Radjabovich	
Raqamli transformatsiya konsepsiyalari va uning ahamiyati.....	1067
Abdurahmonov Abdumalik Abdurashidovich	
O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tashkilotlarini davlat-xususiy sheriklik asosida moliyalashtirishning istiqbollari.....	1074
Xalilova Shoxsanam G'ayrat qizi	
"EIZ" hududida soliq va bojxona rejimlari uchun imtiyozlarni tahlil qilish.....	1079
Xusanov Durbek Nishonovich, Djurayeva Iroda Bahrom qizi	
Mamlakatimizda qishloq xo'jaligini lizing asosida moliyalashtirish istiqbollari.....	1083
Aliqulov Mehmonali Salahiddin o'g'li	
Iqtisodiyotni rivojlantirishda sun'iy texnologiyalarning o'rni.....	1088
Xonova Nodira Fazliddinovna	
O'zbekistonning investitsiya muhiti jozibadorligini oshirish yo'llari.....	1093
Sotimov Yunusbek Turg'unboy o'g'li	
"Yashil" sanoat siyosatini yuritish zaruriyati: bozor nuqsonlaridan milliy xavfsizlikkacha.....	1198
Muqimov Sherali Axmadali o'g'li	
O'zbekiston to'qimachilik sanoatining hozirgi holati tahlili va rivojlantirish istiqbollari.....	1103
Madraximova Gulasal Ro'zimboy qizi	
Improving the Methodology of Econometric Analysis of the Efficiency of Financial Activity of Agricultural Agroclusters of Uzbekistan.....	1108
Ochilov Ilhom Sayitkulovich	



O'zbekistonda "Yashil" iqtisodiyotga o'tish va "Uglerod neytralligiga erishish" strategiyalarining ahamiyati	1116
Pulatov Dilshod Haqberdiyevich, Qulliyev Ulug'bek Mirzayevich, Mamataliyev G'ayrat Chori o'g'li, Bazarov Shodi Abdirahmonovich	
Oziq-ovqat mahsulotlari brend qiymatini oshirishda marketing strategiyalari.....	1123
Xodjiyev Ibroxim Ikramovich	
Актуальные вопросы укрепления доверия населения к банковской системы Республики Узбекистан	1129
Рузибоева Нилуфар Тулкин кизи	
Hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy nomutanosiblikni kamaytirish uchun mintaqaviy siyosat vositalarining xorijiy mamlakatlar tajribasi.....	1135
Normurodov Alibek Anvar o'g'li	
Mintaqa korxonalarining rivojlanish potensialini shakllantirishda innovatsion marketingning o'rni va mohiyati.....	1142
Axmedov Alim Babaniyazovich	
O'zbekistonda turizm sohasini rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy jihatlarini tokomillashtirish yo'llari.....	1146
Samandarova Dilfuza Mansurovna	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida ishsizlikning iqtisodiy oqibatlarini mavjud muammolar va yechimlar.....	1153
Fatilloev Farrux Farhod o'g'li	
O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligi tarmog'iga ta'sir qiluvchi ko'rsatkichlarning iqtisodiy-statistik tahlili.....	1158
Zakirova Umida Maxamadinovna	
Banklar tomonidan muammoli kreditlar bilan ishlash samaradorligini oshirish yo'llari ("Agrobank" ATB misolida).....	1167
Yusufov Xurshidjon Sharifovich	
Namangan viloyatida don va don mahsulotlari narxini shakllanishining bozor tadqiqoti.....	1172
Bahriddinov Jahongirbek Ravshanjon o'g'li	
O'zbekiston Respublikasi va xorijda tog' turizmini rivojlantirish omillarini qiyosiy baholash	1177
Mavlanov G'olibjon Muxammad o'g'li	
Improving The Effective Use Of Local Taxes And Levies In Tashkent City	1182
Shahzad Zokhidov	
Совершенствование методологии механизмов налогообложения ресурсного налога	1186
Мухиддинов Талат Шайдулло угли	
Tadbirkorlik faoliyatida investitsiya muhitining xususiyatlari va chet el kapitalining jozibadorligi.....	1189
I. M. Kamoliddinov, To'khtasinov Boburbek Yusufjon o'g'li	
Kichik biznes tarmoqlariga investitsiyalarni jalb etish xususiyatlari.....	1194
Abdug'aniyev Murodjon Shavkat o'g'li	
Inson resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish orqali iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish.....	1199
Xodjamov Asliddin O'ktam o'g'li	
Organik qishloq xo'jaligiga o'tishning rivojlanayotgan mamlakatlardagi iqtisodiy va ekologik afzalliklari.....	1203
Ahrorov Farhod Baxriddinovich	
Korxonalarda uzumchilik mahsulotlarni ishlab chiqarishda strategik boshqarishda mintaqaviy klaster modellashtirishdan foydalanish	1208
Muhitdinov Asror Akobirovich	
Qashqadaryo viloyatida ishsizlik darajasini istiqbolda kamaytirish ssenariylari	1213
Djumayev Zayniddin Axmedovich, Hamdamov Shahzod Ilhom o'g'li	
Kam ta'minlangan oilalarda tadbirkorlik faoliyatini o'ziga xos yo'llari va imkoniyatlari	1219
Tursunov Nozimjon Nosirovich	
Korxonalar samaradorligini oshirishda soliqlar va soliq siyosatining ahamiyati.....	1223
Saida Yuldasheva	



TADBIRKORLIK FAOLIYATIDA INVESTITSIYA MUHITINING XUSUSIYATLARI VA CHET EL KAPITALINING JOZIBADORLIGI

UDK 338.2

I. M. Kamoliddinov

I.f.f.d., PhD, University Of Bussines And Science
“Iqtisodiyot” kafedrası

To'khtasinov Boburbek Yusufjon o'g'li
Magistrant

Annotatsiya: Maqolada tadbirkorlik faoliyatida investitsiya muhitining xususiyatlari va chet el kapitalining jozibadorligi, tadbirkorlik faoliyati samarasini oshirishda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishning strategik yo'nalishlari, bugungi kundagi kichik biznes faoliyatini o'zgarish jarayonlari hamda mamlakatimiz kichik biznes faoliyatini rivojlantirish samaradorligi ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: investitsiya, xorijiy investitsiya, iqtisod, kichik biznes, xarajat, biznes, tadbirkorlik, , tadbirkorlik faoliyati, investitsion tizim.

Abstract: The article describes the characteristics of the investment environment and the attractiveness of foreign capital in business, strategic directions for the development of a green economy in increasing the efficiency of business, processes of change in the activities of small businesses today, as well as the effectiveness of the development of small businesses in our country.

Key words: investments, foreign investments, economy, small business, cost, business, entrepreneurship, business activity, investment system.

Аннотация: В статье описаны характеристики инвестиционной среды и привлекательности иностранного капитала в предпринимательской деятельности, стратегические направления развития зеленой экономики в повышении эффективности предпринимательской деятельности, процессы изменения деятельности малого бизнеса сегодня, а также как эффективность развития малого предпринимательства в нашей стране.

Ключевые слова: инвестиции, иностранные инвестиции, экономика, малый бизнес, стоимость, бизнес, предпринимательство, деловая активность, инвестиционная система.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 24-oktyabrdagi “Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish davlat dasturlari doirasida amalga oshirilayotgan loyihalarni kreditlash tartibini takomillashtirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-4498-son qarori va mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan bo'lib, bu namunadagi investitsiya muhiti samarali xususiy investitsiyalarni rag'batlantiradi, o'sish va qashshoqlikni kamaytirish uchun vosita bo'lib xizmat qiladi.

Bu aholi uchun yangi ish o'rinlarini ochadi, daromadini oshiradi va yangi imkoniyatlarni beradi. Ya'ni tovarlar va xizmatlar turlarini kengaytiradi va ularning narxini pasaytiradi, bu esa iste'molchilar manfaati uchun va boshqa muhim ijtimoiy maqsadlarni moliyalashtirish uchun soliq tushumlarining barqaror manbasini qo'llab-quvvatlaydi. Investitsiya muhitining ko'pgina xususiyatlari, jumladan, samarali infratuzilma va moliya bozorlarini, odamlarning hayotini bevosita yaxshilaydi. Demak, bir so'z bilan aytganda, investitsion muhitni yaxshilash – firmalarning samarali sarmoya kiritish, ish o'rinlarini yaratish va kengaytirish imkoniyatlari hamda rag'batlari – qashshoqlikka qarshi kurashda va hayot darajasini yaxshilashda barqaror taraqqiyot garovidir.

Shuningdek, investitsiya muhitini shakllantiruvchi hukumat siyosati va xatti-harakatlarini takomillashtirish nafaqat kichik biznes subyektlari uchun balki, mamlakat iqtisodiyotini o'sishini rag'batlantiradi va hamma uchun imkoniyatlarni yaxshilaydi. Kichik biznes subyektlarining samarali investitsiya kiritish, yangi ish o'rinlari yaratish va kengaytirish qarorlariga ta'sir etuvchi ko'plab omillarning ba'zilar har bir korxona uchun uning g'oyalari, imkoniyatlari va strategiyasidan kelib chiqqan holda o'ziga xosdir.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan ham investitsiya tushunchasiga ta'riflar berilgan bo'lib, akademik S.S.G'ulomovning fikricha "Investitsiya deb har bir investorning ixtiyoridagi moliyaviy, moddiy va aqliy boyliklarini birlamchi iqtisodiy samara olish maqsadida biror bir investitsion obyektga sarflashiga aytiladi". Umuman, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni va yuqori texnologiyalarni, boshqaruv ko'nikmalarini jalb qilish milliy firmalarning ishlab chiqarish usullariga muayyan o'zgarishlarni olib kiradi. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash nuqtai nazaridan xorijiy investitsiya oqimini rag'batlantirish kerak, ularsiz yuqori texnologiyalarni uzatish ham bo'lmaydi.

D.G'.G'ozibekov., T.M.Qoraliyevlar tomonidan "Investitsiyalar – barcha turdagi mulkiy va intellektual boyliklarni uzoq muddatli qo'yilmalar tariqasida xalq xo'jaligi tarmoqlariga sarf etiladigan xarajatlar yig'indisini aks ettiradi", deyilgan bo'lsa, B.T.Bayxonov "Investitsiya – tavakkalchilik asosida iqtisodiy foyda olish maqsadida ma'lum bir muddatga tadbirkorlik va boshqa faoliyat turlariga sarflanadigan moddiy yoki nomoddiy jamg'armalar umumiylikni tashkil etuvchi kapital qo'yilma", deb ta'rif berilgan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, B. T. Bayxonov tomonidan berilgan ta'rif bizningcha, barcha mutaxassis olimlarning ushbu atama bo'yicha yondoshuvlarni o'zida mujassamlashtirganligi bilan ajralib, "investitsiya" tushunchasi bo'yicha to'liq ma'lumotni o'zida ifoda etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mamlakatlar bo'yicha daromadlar farqini o'rganish bo'yicha ilgari olib borilgan ishlar bozor operatsiyalarini tartibga soluvchi keng tashkiliy tuzilma, o'sishni rag'batlantiradigan investitsion muhit kichik biznes ishbilarmonlari uchun barqaror ish o'rinlari, imkoniyatlarni yaratadi – kutilayotgan demografik o'zgarishlar sharoitida kambag'allar uchun qashshoqlikdan chiqishning asosiy yo'llarini ishlab chiqish, kambag'al odamlar iste'mol qiladigan tovarlar narxini pasaytirish, kambag'allarning yashash sharoitlarini bevosita yaxshilash. Shuningdek, u hukumatga o'z xalqining salomatligi, ta'limi va farovonligiga sarmoya kiritish imkonini beradigan soliq bazasining kengayishiga hissa qo'shishini uning maqsad va vazifalarini belgilashga sabab bo'ladi.

Kichik biznes subyektlari samarali investitsiya kiritishlari, ish o'rinlari yaratishlari va kengaytirishlari kerak bo'lgan imkoniyatlar hamda rag'batlar ularning kutilayotgan rentabellikka ta'siri orqali kuzatilishi mumkin. Bu rentabellikka ma'lum imkoniyatlar bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar, tavakkalchilik va raqobat to'siqlari ta'sir qiladi. Har bir omil mustaqil ahamiyatga ega va uchalasi ham o'zaro bog'langan. Ba'zi xavflarni katta xarajatlarni kamaytirish orqali oldini olish mumkin. Chunki, yuqori xarajatlar yoki xavflar raqobatga to'sqinlik qilishi mumkin. Raqobat to'siqlari ba'zi kichik biznes subyektlari uchun xavflarni kamaytirishi mumkin, lekin imkoniyatlarni inkor etishi va boshqalar uchun xarajatlarni ko'paytirishi mumkin. Ko'p omillar ma'lum bir joyda xarajatlar, tavakkalchilik va raqobatning oldini oladilar.

TAHLIL VA NATIJALAR

Kichik biznes subyektlarini bozorga kirish va chiqishni tartibga solish hamda ularning raqobatga qarshi xatti-harakatlariga javob berish orqali hukumat raqobat bosimiga ta'sir ko'rsatadi. Raqobatni umumiy darajada o'lchash qiyin, biroq kichik biznes subyekti darajasidagi dalillar mamlakatlar o'rtasida raqobat bosimi qanchalik o'zgarishi mumkinligini ko'rsatadi.

Albatta, investitsion muhitni yaxshilash barcha xarajatlarni, tavakkalchiliklarni va barcha to'siqlarni kamaytirishdan iborat emas. Ammo, soliqlar va investitsiyalarni tartibga solish sog'lom investitsiya muhitini qo'llab-quvvatlaydi va kengroq ijtimoiy manfaatlarni himoya qiladi. Kichik biznes subyektlar uchun qulay investitsion muhitni yaratish va boshqa ijtimoiy maqsadlarga erishish o'rtasidagi ziddiyatni boshqarish hukumatlar uchun asosiy vazifa sanaladi.

Investitsiya muhitining yaxshilanishi o'sishni rag'batlantiradi va qashshoqlikni kamaytiradi. Aholining ko'payishi bilan iqtisodiy o'sish jamiyatning turmush darajasini oshirishning yagona barqaror mexanizmidir. O'sish nafaqat yuqori daromadlar, balki chaqaloqlar o'limining pastligi, ta'limning kengligi va umr ko'rish davomiyligi kabi inson rivojlanishining yaxshiroq ko'rsatkichlari bilan bog'liq. Bu har qanday turdagi kichik biznes subyektlar uchun imkoniyatlar yaratadi, ish o'rinlari yaratadi va davlat xizmatlarini moliyalashtirish uchun soliq bazasini kengaytiradi. Uy xo'jaliklari, shuningdek, kichik biznes subyektlari mulk huquqlari, moliyaviy bozorlar va infrazuzilma xizmatlaridan yaxshiroq foydalanadilar. Bundan tashqari, o'sish milliy aktivlarning qiymatini, shu jumladan ekologik aktivlarni va kelajakda o'sish potensialini saqlagan holda, barqaror bo'lishi kerakligini tushunish mumkin.

Kapitalning to'planishi ishlab chiqarish jarayoniga ko'proq investitsiya kiritadi, lekin qo'shimcha kapitalning

1 G'ozibekov D.G'., Qoraliyev T.M. Investitsiya faoliyatini tashkil etish va davlat tomonidan tartibga solish.-T.:TMI, 1997, 72-b.



cheklangan ta'siri kamayishi tufayli bu jarayon o'sishni saqlab turishi mumkin. Shunday qilib, investitsion muhit muvaffaqiyatining o'lchovi investitsiya miqdori emas, balki investitsiya sifatiga investitsion muhiti ham ta'sir qiladi.


Shuni ham aytish lozimki umumiy investitsiyalar va iqtisodiy o'sish o'rtasida, ayniqsa, davlat va xususiy investitsiyalar o'rtasida hech qanday farq bo'lmasa, unchalik bog'liqlik kuzatilmaydi. Kichik biznes subyektlari investitsiya qarorlarining oqibatlarini zimmlariga olgan holda o'z mablag'larini xavf ostiga qo'yib raqobatbardosh biznes muhitiga investitsiya kiritadilar.

Davlatning hududiy siyosati muvozanatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashga, hududlararo farqlanish darajasini pasaytirishga va raqobatbardoshlikni oshirish hamda kompleks iqtisodiy rivojlanish orqali aholining turmush sifatini yaxshilashga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Muvozanatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga asosan hududiy siyosatning quyidagi yo'nalishlarini amalga oshirish orqali erishish kerak: raqobatbardosh ustunliklarga asoslangan yangi iqtisodiy o'sish markazlarini yaratish; davlat va biznesning infratuzilmaviy investitsiyalarini muvofiqlashtirish, mintaqaning rivojlanishining ustuvorliklari va cheklanishlarini hisobga olgan holda inson taraqqiyoti va aholining turmush darajasi va sifatidagi farqni kamaytirish.

Hozirgi vaqtda tadbirkorlik sohasida muvaffaqiyat qozonish mumkin emas, agar uning rivojlanishini rejalashtirilmasa, istiqbollari va imkoniyatlari, maqsadli bozorlarning holati, ulardagi raqobatchilarning pozitsiyasi to'g'risida muntazam ma'lumotlar to'planmasa. Bu borada, fikrimizcha, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini saqlashning samarali omili raqobatbardoshlikni oshiradi, shuning uchun mamlakat ichidagi hududlar o'rtasida raqobatga e'tiborni kuchaytirish lozim. Axir, aynan hududiy tadbirkorlik sektori raqobatbardoshligining yuqori darajasi ijtimoiy mas'uliyatli ish beruvchi rolini ishlab chiqish va samarali bajarishga imkon beradi.

Umuman olganda, mintaqaning raqobatbardoshligi uning barqaror yoki o'sib borayotgan bozor ulushiga ega bo'lgan kichik biznes subyektlarini jalb qilish va ushlab turish qobiliyati sifatida qaraladi, shu bilan birga uning ishtirokchilarini turmush darajasi barqaror o'sib boradi. Shuni hisobga olgan holda, raqobatbardoshlik geografik makonga qarab farq qilishi mumkin, chunki mintaqalar o'sish omillariga qarab har xil tezlikda rivojlanadi.

Ushbu iqtisodiy toifadagi konseptual yondashuvlarni ko'rib chiqib, hududning raqobatbardoshligi – bu boshqaruv nazariyasi va amaliyoti sohasida jadal rivojlanayotgan, boshqaruv qarorlariga ta'sir ko'rsatuvchi, uni amalga oshirishda mintaqada biznes sektori uchun qulay investitsion muhitni yaratish uchun ichki va tashqi raqobat afzalliklari umumiy xususiyatdir, degan xulosaga kelish mumkin. Hududning raqobatbardoshligi konsepsiyasining talqini uning asosiy tarkibiy qismlarini ajratishga imkon berdi (1-rasm).



1-rasm: Raqobatbardoshlik konsepsiyasining asosiy tarkibiy qism turlari

Yuqoridagi rasmda keltirilgan ma'lumotlardan kelib chiqqan holda iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan bog'liq bo'lgan mintaqaviy raqobatbardoshlikning asosiy elementi mintaqaviy ishbilarmonlik muhitini va uning investitsion muhitini baholash deb hisoblaymiz. Parametrlar va maqsadli funksiyalar tizimi sifatida investitsiya modeli faoliyatning mohiyati va yo'nalishini uch jihatdan aniqlaydi. Investitsiya modelining makroiqtisodiy jihati, real sektor va pul-moliya bozorining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarining iqtisodiy faoliyat turlari hamda umuman, hududlar bo'yicha dinamikasi, tuzilishini, shuningdek, ishlab chiqarishning asosiy omillarini takror ishlab chiqarish hamda ulardan foydalanish xususiyatlarini o'rganish bilan bog'liq. Bu nafaqat iqtisodiyotning investitsion salohiyatini ichki rivojlanish zaxiralarini safarbar etish nuqtai nazaridan baholashga, balki ichki va xorijiy sarmoya uchun investitsion jozibadorlikni oshirish uchun cheklovlar va imkoniyatlarni aniqlashga imkon beradi.

Kichik biznes subyektlarining ishbilarmonlik muhitining raqobatbardoshligini rivojlantirishga rag'batlantiruvchi va ta'sir ko'rsatadigan omillarni aniqlash maqsadida yuqorida ta'kidlanganidek, Namangan viloyatida tanlama usulda olingan 65 ta kichik biznes subyektlari o'rtasida o'tkazilgan anketa so'rovnomalari asosida olingan




natijalardan foydalangan holda investitsion jozibadorligi aniqlanadi.

Investitsion muhitni tashxislash bo'yicha rus va xorijiy uslubiy yondashuvlarni o'rganish natijasida quyidagi xulosalar chiqarildi:

- xorijiy usullar bilan investitsiya muhitini baholash,
- baholanayotgan obyekt ma'lum bir guruhga tegishli bo'lgan o'ziga xos omillar yoki xususiyatlar majmui asosida amalga oshiriladi;
- chet ellik usullar – xorijiy investorlar uchun investitsiya qarorlarini qabul qilishda ko'rsatmadan foydalaniladi;
- investitsion muhitni baholash amaliyoti ekspertlar baholaganidek, subyektiv omillardan statistik va tahliliy ma'lumotlar asosida olingan obyektiv ko'rsatkichlarga o'tish tendensiyasini aks ettiradi.

Tadbirkorlik tashabbusi va davlat siyosati tadbirlarining samarali kombinatsiyasi biznes muhitini o'zgartirishda moliya institutlarining ta'sirini kuchaytiradi. Bu xususiy tadbirkorlik va xususiy investorlarni davlat-xususiy sheriklik tamoyillaridan foydalanganda rentabellik / tavakkalchilik mezoniga ko'ra rivojlanish dasturlari hamda investitsion loyihalarida ishtirok etish uchun investitsiya jalb qilish orqali amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasini iqtisodiy rivojlantirish sohasidagi strategik maqsad va asosiy vazifalardan biri – investitsion jozibadorlikning o'sishi va hududlarning ijobiy imidjini shakllantirish, tashkilotlarning sarmoyaviy va innovasion faolligini oshirishdir. Biroq, bu maqsadni amalga oshirishda ko'plab muammolar mavjud. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida investitsiya muhitini yaxshilashga, uning jozibadorligini oshirishga to'sqinlik qiladigan ichki va tashqi muammolar aniqlandi (2-rasm).



2-rasm: Investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishga to'sqinlik qiladigan omillar



Tadqiqot natijalari asosida hududlar va kichik biznes subyektlari investitsiya muhiti jozibadorligini oshirish bo'yicha hududiy hokimiyat va mahalliy davlat hokimiyati organlari, shuningdek, tadbirkorlik subyektlariga quyidagi tavsiyalarni ishlab chiqildi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, belgilangan qo'llab-quvvatlash yo'nalishlari va shakllari investitsiya loyihalarini qo'llab-quvvatlashning bir qismi sifatida ham individual, ham murakkab shaklda ko'rsatilishi mumkin. Taklif etilgan tavsiyalar tadbirkorlar sonini ko'paytirishga, iqtisodiy resurslar mavjud bo'lishiga yordam beradi, bu esa o'z navbatida mintqa iqtisodiyotining biznes sektorining raqobatbardoshligini oshirish va uning investitsion muhitini yaxshilash uchun qulay sharoit yaratadi.

Mintaqaviy va mahalliy hokimiyat darajasida:

- tadbirkorlik subyektlari tomonidan davlat moliyaviy ko'magini olish qulayligi nuqtai nazaridan ma'muriy to'siqlarni kamaytirish;
- tadbirkorlik subyektlarining innovasion rivojlanishiga ko'maklashish va rag'batlantirish;
- korxonalarda energiya tejash va chiqindisiz texnologiyalarni joriy etishni rag'batlantirish;
- tadbirkorlik subyektlari darajasida;
- korxona kadrlarini strategik rivojlantirish modelini yaratish va korporativ boshqaruv tizimini takomillash-tirish;
- mintaqaviy hokimiyatlarning moliyaviy va maslahat yordamidan faol foydalanish;
- o'z faoliyatini optimallashtirish uchun outsorsingning turli shakllarini faol amalga oshirish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni. Toshkent, "O'zbekiston", 2017-yil.
2. Olim Sabirovich Kazakov Menejmentga kirish. Darslik. Toshkent. "Fan ziyosi", nashriyoti, 2021-yil.
3. М.Мескон, М. Альберт, Ф.Хедоури. Основы менеджмента. М. Дело, 1992. – С.489.
4. Muhammadjanovich K. I. Effective Directions of Development of Entrepreneurship // Conference Zone. – 2022. – С. 129-133.
5. М.Я. Погорелова. Экономический анализ: теория и практика: Учебное пособие / М.Я. Погорелова. – М.: ИЦ РИОР: НИЦ ИНФРА-М, 2016. – 290. с.86.
6. Л.И.Абалкин, О.И. Волков и др. Экономика предприятия (фирмы): Практикум / Ред. О.И. Волков, В.Я. Поздняков. – М.: ИНФРА-М, 2016., с.91].
7. Kenjabayev A.T. Tadbirkorlik faoliyatini axborotlashtirish milliy tizimini shakllantirish muammolari.: Iqt.fan. dokt. diss. avtoref. – T.: 2005-39-b.
8. O'zbekistonda kichik tadbirkorlik. Statistik to'plam. – Toshkent, 2020-y.190-b.
9. Namangan viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.